

## TIZIM, UNING O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISH VA "SANATSIYA" QOBILİYATLARI

### *Annotatsiya.*

Maqolada murakkab bir falsafiy kategoriya bo‘lgan tizim tushunchasi, uning tarkibi, xossalari, unsurlari va shakllari har tomonlama o‘rganilgan. Asosiy e‘tibor tizimlarning murakkab shakli bo‘lgan ijtimoiy tizimlarga va ularning o‘z – o‘zinini tozalay olish qobiliyatiga bag‘ishlangan. Biotizimlarga nisbatan ancha murakkab bo‘lgan ijtimoiy tizimlarda ham bu qobiliyat o‘ta muhim ekanligi har tomonlama tahlil qilingan va kerakli xulosalarga kelingan.

**Kalit so‘zlar:** tizim, tizimli yondoshuv, o‘z-o‘ini boshqarish, sanatsiya, biotizim, ijtimoiy tizim.

В статье всесторонне исследовано одна из сложных и важнейших философических категорий системы, её сущность, структура, элементы и их формы. Удачно использовано важнейший оружия научной исследования современности – системный подход. В статье основное внимание уделено самым сложным системам – общественным системам, прежде всего её способность самоочищения системы. В статье разносторонне анализируется способность санации современных общественных систем и делается необходимые выводы.

**Ключевые слова:** система, системный подход, самоуправление, санация, биосистема, социальная система.

The article thoroughly studied one of the most difficult and the most important philosophical categories of philosophy, its nature, structure, elements and their shape. Successfully used by the most important weapons of modern scientific research - a systematic approach. The article focuses on the most complex systems - social systems, especially its ability to self-cleaning system. Compared bio systems social systems are very complex, and their ability to sanitation for them is paramount. Article diversify analyzed the ability of modern public sanitation systems and make the necessary conclusions.

**Key words:** system, system approach, self-management, sanitation, biosystem, social system.

**Kirish.** Har bir murakkab jarayonni o‘rganishda tizimli yondoshuv bo‘lmog‘i darkor. Tizimli tahlil – murakkab obektlar, jarayonlar, ko‘p komponentli, ko‘p darajali tizimlarni o‘rganishga qaratilgan, yaxlit bo‘lgan usul va vositalardan iborat tadqiqotdir. U kompleks yondoshuvga asoslanadi, tizim unsurlarini o‘zaro aloqasi va o‘zaro ta’sirini hisobga oladi [1.594.].

Dastlab, tizimli yondoshuvga kelsak, tizimli yondoshuv yigirmanchi asrning yetmishinchi yillarida ilmiy izlanishga keng miqyosda kirib keldi. Ammo, tizimli yondoshuvni boshlab bergan shaxs Charlz Darvin hisoblanadi, u XIX asrning 40-70 yillarida turlarning kelib chiqishida qo‘llab, o‘zining evolyusiya nazariyasini yaratgan. Hozirgi paytda fanning barcha murakkab sohalarida bu yondoshuv qo‘llanilib kelinadi [4.612-613.].

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.**

Tizim haqidagi birinchi tasavvurlar antik falsafada shakllangan. Yunon falsafasi va fanida tizim tushunchasi bilimlarga nisbatan qo‘llanilgan (Yevklid, Platon, Aristotel va boshqalar). Keyinchalik bu tushunchani B. Spinoza va G. Leybnits rivojlantirib, umuman borliqqa nisbatan tadbiiq qilgan. Yangi davr falsafasi va fanida Tizim tushunchasidan ilmiy bilimlarni tahlil qilishda foydalanilgan. Bilimlarning Tizimlilik tamoyillarini nemis faylasuflari I. Kant, F. Shelling, G. Gegel ishlab chiqqan. XIX-asrning 2-yarmidan boshlab, tizim tushunchasi ilmiy bilimlarning turli sohalariga kirib bordi. Tizimni, tizimli yondoshuvni Yevropa olimlaridan: Mattessicq R.,

Sourcebook A., Buckley W., Laszlo E. va boshqalar, rus olimlaridan: Рапопорт А., Огуртсов А.П., Садовский В.Н., Захаров В.Н., Поспелов Д.А., Хазацкий В.Е., Месарович М., Такахара Я., Блауберг И.В. va boshqalar [11] tahlil qilishgan. Tizim tushunchasi yaxlitlik, tuzilish, aloqa, munosabat tushunchalari bilan uzviy bog'liqdir. Tizim tushunchasi nihoyatda keng ko'lamda qo'llanadi. Umuman voqelikdagi har qanday ob'yektga tizim sifatida qarash mumkin. Biz faqat tizimning ikki jihatiga urg'u bermoqchimiz, xolos.

### **Tadqiqotning metodologik asosi.**

Maqolada tahlil va sintez, ilmiy abstratsiya metodlaridan foydalanib "tizim" kategoriyasini har tomonlama tahlil qilib chiqqan. Tizimli tahlil usulini qo'llash natijasida tizimlarning ikki xossasiga, yani o'-o'zini boshqara olish qobiliyati va o'-o'zini tozalay olish, yani sanatsiya qobiliyatlari tahlil qilib chiqilgan. Mantiqiy tahlil usulidan foydalanilgan holda mamlakat iqtisodiyotida bu qobiliyatlarni rivojlantirish zarurligi isbot qilib berilgan. Tadqiqotda bundan tashqari kuzatish, solishtirish, iqtisodiy-matematik tahlil, dialektik tahlil kabi metodlardan ham foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar.**

Tizim (grekcha so'zdan olingan bo'lib, qismlardan iborat butun, birlashish ma'nosini bildiradi) - ma'lum bir yaxlitlikni, birlikni tashkil etuvchi, bir-biri bilan aloqada bo'lib, ma'lum munosabatlar orqali bog'langan unsurlarning majmuasidir. Bu tushuncha uzoq tarixiy taraqqiyot davomida qator o'zgarishlarga uchrab, XX asrning o'rtalarida falsafiy-metodologik va maxsus-ilmiy tushunchalar ichida hal qiluvchisiga aylandi. Tizimni o'rganishda tizimlilik tamoyili, butun bilan bo'lak o'rtasidagi nisbat, tizimning atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri, har bir tizimli ob'ektning tarkiblilik xususiyati kabilarni bilish muhimdir.

Tizimlilik tamoyillariga quyidagilar kiradi: butunlilik, ya'ni butunning xossasi har bir unurning xossasi yig'indisi emas, balki alohida xossaga egaligidir, har bir unurning o'rni, funksiyasi, o'ziga xosligi, tizim bilan munosabati tizim ichidagi o'rniga bog'liqdir. Tizim bilan atrof-muhitning o'zaro bog'liqligi, ya'ni tizim o'z xossalarini muhit bilan o'zaro ta'sir jarayonida shakllantiradi va yuzaga keltiradi, bu o'zaro ta'sirda asosiy, muhim, faol komponent bo'lib chiqadi.

Har bir tizimni tushuntirishda ko'p qirralikni mavjudligi, ya'ni tizimning murakkabligi tufayli uni o'rganish uchun model yaratganda, u faqat tizimning bir jihatini bayon qila oladi. Ierarxiyalik, ko'p darajalik, tarkibiylik - tizim tuzilishining xossasi bo'lib qolmay, balki uning o'zini tutishi hamdir.

Eng murakkab tizimlarning muhim xossalaridan biri o'z-o'zini tashkil etish qobiliyatidir, ya'ni faoliyat yuritish davomida o'z tarkibini o'zgartira olishidir. Murakkab tizimlarda hatto bir-biriga zid maqsadi bo'lgan unsurlardan ham iborat bo'lishi mumkindir [4.610.].

Tizimlarning eng murakkabi ijtimoiy tizimlar bo'lib, ular ijtimoiy birliklar yoki alohida individlarni o'z ichiga oluvchi, turli xil aloqalar va o'zaro munosabatlar bilan bog'langan, o'z xususiyati, tabiati bo'yicha maxsus ijtimoiy tizimdir. Ijtimoiy tizimlar ma'lum bir uzoq muddat davomida o'zaro muloqotda bo'lgan insonlar guruhidir, ijtimoiy tarkib bilan shakllangan tashkilotdir [4.611.].

Murakkab tizimlarning muhim xossalaridan biri o'z-o'zidan rivojlanish, yoxud o'z-o'zidan harakatlanish xossasidir. O'z-o'zidan harakatlanish - bu, falsafiy kategoriya bo'lib, ob'ektning ichki shart-sharoitlari, omillari va o'ziga xos bo'lgan ziddiyat, qarama-qarshiliklar tufayli harakatlanishi, o'zgarishi tushiniladi. O'z-o'zidan harakatlanuvchi tizim faqat tashqi omillar ta'siri ostida harakat qiluvchi tizimga qarama-qarshi sifatida, o'z holicha o'zgaruvchi sifatida qaraladi.

O'z-o'zidan harakatlantiruvchi tizimda tashqi ta'sirlar muhim rol o'ynamaydi, ular ayrim holda modifikatsiyalashtiruvchi rol o'ynashi mumkin. O'z-o'zidan harakatlanishning ilmiy asoslarini qadimgi grek olimlari Geraklit va Aristotellar yaratgan bo'lsa, uning zamonaviy konsepsiyasini nemis faylasufi Hegel ishlab chiqqan [4.590.].

Murakkab tizimlarning yana bir muhim xossasi o'z-o'zidan tashkil etish xossasi hisoblanadi. O'z-o'zidan tashkil topish - bu shunday jarayonki, unda murakkab dinamik tizim yaratiladi, takror ishlab chiqiladi. O'z-o'zidan tashkil topish jarayonlari yuqori murakkablik darajaga ega bo'lgan va o'zaro aloqalari qattiq tartibga emas, balki ehtimollik xarakterda bo'lgan ko'p miqdordagi unsurlardan iborat bo'ladi.

O'z-o'zidan tashkil topish xossasi turli xil tabiat va jamiyat ob'ektlarida uchraydi: tirik hujayrada, organizmda, biologik populyasiyada, insonlar jamoasida va h.k.

O'z-o'zidan tashkil topish jarayonlari tizim unsurlari o'rtasidagi mavjud aloqalarning qayta qurilishi yoki yangilarining paydo bo'lishi orqali sodir bo'ladi. Bu jarayonlarning eng muhim o'ziga xosligi, ularning maqsadga qaratilganligi, shu bilan birga tabiiyligi, tartibsizligidir. Bu jarayonlar tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirda sodir bo'ladi, shu bilan birga avtonomlik ham xos bo'ladi [4.591.,11].

O'z-o'zidan tashkil topish jarayonlarining uch tipi ajratiladi:

Birinchi tip - bu tashkilotning o'z-o'zidan tug'ilishi, ya'ni ma'lum bir yaxlit ob'ektdan alohida, yuqoriroq darajadagi o'z qonuniyatlariga ega bo'lgan tizimning barpo bo'lishidir (Masalan, bir hujayrali organizmlardan ko'p hujayrali organizmlarning paydo bo'lishi).

Ikkinchi tip - faoliyat yuritishning tashqi va ichki sharoitlari o'zgargan holda tashkilotning ma'lum darajasini saqlab qola oladigan jarayonlardir.

Uchinchi tip - o'tgan tajribani jamg'ara oladigan va foydalanib biladigan tizimlarning o'z-o'zidan rivojlana oladigan, takomillasha oladigan jarayonlardir.

"O'z-o'zidan rivojlana oladigan tizim" termini ingliz kibernetiki U.R.Eshbi (1947y) tomonidan kiritilgan va bu boradagi dastlabki tadqiqotlar yigirmanchi asrning elliginchi yillarida olib borilgan [4.591.].

Murakkab tizimlarning keyingi muhim xossasi bu o'z - o'zini boshqara olish xossasi hisoblanadi. O'z-o'zini boshqarish – tashqi aralashuvsiz, boshqaruv faoliyatining asosiy funksiyalarini o'zi amalga oshiradigan boshqaruv tartibidir. Murakkab tizimlar, ayniqsa biologik va ijtimoiy tizimlarda bu xossa yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak, aks holda tizimning yashab ketish ehtimoli past bo'ladi [1.564.].

Shu o'rinda o'z-o'zini boshqarishning iqtisodiy tizimlardagi o'ziga xosligiga to'xtalib o'tmoqchimiz. Iqtisodiyot nazariyasining eng murakkab masalalaridan biri – bu jamiyat taraqqiyotida bazis va ustqurmaning o'zaro bog'liqligi hamda o'zaro ta'siri masalasi hisoblanadi. Boshqaruv masalalari bir tomondan bazis bilan mustahkam aloqada bo'lsa, ikkinchi tomondan ustqurma bilan chambarchas bog'liqdir. Hozirgi jamiyatda, jumladan bizning mamlakatimizda kichik biznes va yakka tadbirkorlik tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan, mahalliy boshqaruv, o'z-o'zini boshqaruv tizimini rivojlantirish davr talabi deb qaralayotgan davrda, boshqarish masalalarining nazariy jihatlarini bilish katta ahamiyat kasb etmoqda. Bizga ma'lumki, boshqarish juda murakkab jarayon va uni turkumlash uslublari juda ko'p. Ammo, biz uni faqatgina bir qirra nuqtai nazaridan ko'rib chiqmoqchimiz. Bu qirra nuqtai nazaridan boshqaruvni ikki qarama-qarshi metodga bo'lish mumkin:

a) o'z-o'zini boshqarish (boshqarishning shunday tartibiki, bunda jamoa faoliyatini boshqarish funksiyasini tashqaridan aralashuvsiz jamoaning o'zi olib boradi [1.564]) hamda

b) ma'muriy (avtoritar), yoki davlat boshqaruv (avtoritar «Avtorit» lotincha so'zidan olingan bo'lib, hokimiyat degan ma'noni bildiradi).

Agar insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotiga nazar tashlasak, boshqarishning bu ikki shakli doimo birga, ma'lum nisbatda bo'lganligini ko'ramiz. Uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida davlat apparati, garchi u asosan ma'muriy boshqaruviga tayangan bo'lsa-da, doimo zaruratga qarab o'z-o'zini boshqarish unsurlaridan ma'lum chegarada, ma'lum ulushda foydalanib kelgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumida o'z-o'zini boshqarishda oddiygina, sodda xarakterda bo'lgan, lekin asta-sekinlik bilan bu tartibsizlikdan so'ng ma'muriy boshqaruv o'z ustunligini ko'rsata boshladi. Barcha muammolarni hal qilish masalalari boshliqlar (qabila boshliqlari-yu, shamanlar) qo'lida to'plana borib, boshqarish masalalarini hal etishda markazlashish jarayoni boshlanadi.

Qadimgi dunyoda jamiyatni boshqarishda quldorlar uchun boshqarishning qo‘pol, oddiy va asosan ma‘muriy metodlari xos edi, ammo ular ba‘zan o‘z-o‘zini boshqarish unsurlarini ham qo‘llar edilar (masalan, Qadimiy Gretsiyada qullar uchun demokratiya (erkinlik) yoki Rim respublikasidagi saylov organlari yoxud dehqonlarning o‘z-o‘zini boshqaruvi). O‘rta asrlarda, yerga bo‘lgan xususiy mulk hukm surgan jamiyatda ma‘muriy boshqaruv ancha murakkablashadi, jamiyatni boshqaruvida jamiyat ustqurmasining ideologiya, din, urf-odatlar kabi strukturali komponentlaridan yanada yaxshiroq, unumliroq foydalana boshlandi. Jamiyat taraqqiy qila borishi bilan ma‘muriy boshqaruv apparatining quyi pog‘onalarda o‘z-o‘zini boshqarish unsurlari o‘sib boradi (mehnatkash - xo‘jayinning xohishini bajaruvchi qul emas, bir parcha yeri bo‘lgan o‘z xo‘jaligini nisbatan yurituvchi dehqon).

Kapitalizm ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasini yana bir pog‘ona yuqoriga chiqardi, jamiyatni, jumladan, uni boshqarishni yanada murakkablashtirdi va mukammallashtirdi. Shuning uchun kapitalistlar, korxonalar xo‘jayinlari ma‘muriy boshqaruvning juda nozik (mahoratli) metodlarini o‘ylab topadilar va ulardan foydalanadilar, shu bilan birga jamiyat taraqqiyoti, ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasining oshishi o‘z-o‘zini boshqarish unsurlaridan yanada ko‘proq foydalanishni talab qiladi. Bu borada yapon menejmentini yaqqol misol sifatida keltirish mumkin [3.75-80.]. Fikrimizcha, jamiyat taraqqiyotida, jamiyat boshqaruvida ma‘muriy va o‘z-o‘zini boshqaruv nisbati qanday bo‘lganligini chuqur o‘rganishimiz zarur.

Shunday qilib, sivilizatsiya (insoniyat taraqqiyoti) qanchalik oldinga qarab borsa, o‘z-o‘zini boshqarish unsurlari shunchalik ko‘p bo‘ladi, ma‘muriy boshqaruv esa kamayadi va uni amalga oshirish qiyinlashadi, lekin ekstremal sharoitlarda jamiyat (yoki kichik bir jamoa) orqaga bir qadam tashlab, ma‘muriy boshqaruvdan ko‘proq foydalanishni boshlaydi. Fikrimizcha, qadimgi Osiyoda o‘ta totalitar jamiyatlar o‘rnatilishining asosiy sabablaridan biri, nil, hind, yansizi, yefrat kabi daryolarning quyi qismida sug‘oriladigan dehqonchilikka tayangan sivilizatsiyalar joylashgan hududlarda tabiiy injiqliklar natijasida tez-tez ekstremal sharoitlarning vujudga kelishi, sivilizatsiyaning yashashi sug‘oriladigan yerdagi mehnat natijasiga juda kuchli, chambarchas bog‘liqligidir [8,9,10].

Bunday «orqaga qadam» faqatgina «tor joylar»ni rivojlantirish to‘g‘risidagi qarorlarni amalga oshirish uchun xizmat qilishi mumkin. Masalan, bunday «orqaga qadam»ni Rossiyada yigirmanchi asrning 20 yillarning oxirlarida qilingan edi, garchi iqtisodiy sharoitlar unchalik ekstremal bo‘lmasada [qarang:2.]. Yoxud, masalan, SSSRda Ulug‘ Vatan urushida g‘alaba qozonishda, mamlakat iqtisodiyoti tiklash, urush vayronalarini qayta tiklashga, AQShga nisbatan harbiy paritetga ega bo‘lish uchun ijobiy xizmat qilgan. Stalinizmning «tashqi va ichki dushmanlar to‘g‘risidagi» ideologiyasi esa ekstremal sharoitlarni yaratishda va bunday «orqaga qadam»ni oqlashda, Stalin davrida va undan keyingi davrlarda davlat boshqaruvida ma‘muriy usullarni ko‘proq qo‘llashga bahona bo‘lgan. Yoxud, mikro darajadan misol keltirsak, agar korxonalar moliyaviy jihatdan inqiroz holatida yoki bankrot oldi holatda bo‘lganida bunday qadam o‘zini oqlashi mumkin. Biroq, bunday boshqarishda korxonaning taraqqiyoti har tomonlama, kompleks xarakterga ega bo‘lmaydi.

Totalitar tizimdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonini boshidan kechirayotganda O‘zbekiston uchun dolzarb, shu bilan birga juda murakkab masala – bu jamiyatni boshqarishda ma‘muriy va o‘z-o‘zini boshqarish o‘rtasidagi optimal nisbatni aniqlash va hayotga tadbiiq qila olish hisoblanadi. Hozirgi o‘tish davrida xususiy mulk egalari yaxshi shakllanib ulgurmanligi tufayli tadbirkorlar oldida ko‘ndalang bo‘layotgan ko‘pgina masalalarni ma‘muriy boshqaruvsiz, yaxshi ma‘mur mutaxassisiz hal qilib bo‘lmay qolmoqda. Ayniqsa, ular tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ulanishni endigina boshlaganlaridan, tajribalari yetarli emasligidan, bundan tashqari ularning kapitali nisbatan kichik bo‘lgan paytda ma‘muriy usullarni qo‘llashga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanish darajasi regionlar, tarmoqlar va sohalar bo‘yicha bir xil emasligi tufayli ham barcha korxonalar uchun ma‘muriy boshqaruv va o‘z-o‘zini boshqaruv o‘rtasida optimal nisbat bir xil bo‘lishi mumkin ham emas (balki harbiy sohada ma‘muriy boshqaruv ko‘proq bo‘lishi kerak, iqtisodiyotda ko‘proq o‘z o‘zini boshqarish bo‘lishi maqsadga muvofiq, san’atda esa yanada ma‘muriylikni minimumga keltirish zarur va hokazo).

Xullas, barcha korxonalar uchun yuqoridan hech qanday «optimallik» shablone ham bo'lmay kerak. Faqat bozor munosabatlari ma'muriy boshqaruv va o'z-o'zini boshqarish o'rtasidagi optimal nisbatni ko'rsatish mumkin. Bunday optimal nisbatni to'g'ri tanlab, amaliyotda o'rnatib bilgan korxonalar ancha samarali faoliyat yuritishiga raqobat kurashida g'alaba qilishiga imkon tug'iladi.

Murakkab tizimlarning yana bir muhim xossasi - o'z-o'zini tozalash (sanatsiya qobiliyati deb atash bo'ladi) xossasi hisoblanadi. Sanatsiya odatda iqtisodiyotda korxonalarining moliyaviy ahvolini yaxshilash, ularning bankrotligini oldini olish yoki raqobatbardoshligini oshirish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimi sifatida yoki tibbiyotda tiklanish va davolash maqsadida tibbiy ko'rik ma'nosida ishlatiladi [7].

Ilmiy, ayniqsa iqtisodiy adabiyotlarda bu juda kam o'rganilgan jihatdir. Sanatsiya (lotincha so'z bo'lib, davolash, sog'liqni tiklash ma'nosini bildiradi) – odatda mikro darajada korxonani bankrot bo'lishini oldini olish, uning moliyaviy holatini yaxshilash, korxonani qayta tashkil etish kabi maqsadlar uchun ishlab chiqilgan davlat va banklarning choralar tizimidir [1.564.]. Makro darajada bu xossa alohida tarzda o'rganilmagan.

Tabiatdagi nisbatan murakkab tizimlarni o'rgansak, ular sanatsiya qobiliyatiga ega ekanligini, ya'ni o'z-o'zini tozalash mexanizmlariga ega ekanligini kuzatamiz. Bu, avvalambor, ayniqsa million yillar davomidagi evolyusion jarayon tufayli takomillashgan biologik tizimlarga taaluqdir. Bu murakkab tizimlar faqat o'z-o'zini tozalash mexanizmlariga ega bo'lgandagina rivojlana oladi. O'z-o'zini tozalash qobiliyati o'z-o'zidan rivojlanuvchi tizimning hal qiluvchi tomonlaridan hisoblanadi. Bu qobiliyat biotizimning o'zida mavjud bo'lgan, vaqt o'tishi bilan keraksiz bo'lib qolgan unsuridan tozalanish, eskirgan komponentlarni yoki shaklini o'zgartirish, o'z-o'zini tugatish yoki rivojlanishini bildiradi. Har qanday murakkab biotizim rivojlangan o'z-o'zini tozalash qobiliyatga ega, bu esa millionlab yillar davomida takomillashib borgan, uzoq biologik evolyusiyaning natijasidir. Albatta, tizimni tozalashda o'z-o'zini tozalash qobiliyatidan tashqari tizimni tozalashning tashqi omillari ham ijobiy ahamiyat kasb etishi mumkin. Biroq tizim to'la qonli, rivojlanuvchi tizim darajasiga chiqish uchun unda o'z-o'zini tozalash qobiliyati bo'lishi zarur.

O'ta murakkab biotizimlardan biri insonga keladigan bo'lsak, agar u biror bir kasallikka chalinsa, buning ma'nosi o'ta murakkab biotizim bo'lgan insonning strukturasiida begona unsurlar paydo bo'ladi yoxud uning ayrim unsurlari deformatsiyaga uchrashini bildiradi. Inson organizmi ulardan xalos bo'lishi kerak. Tizimni tozalashda tashqi omillardan ham foydalanish mumkin (Misol uchun dori-darmon berish, operatsiya, ukol va boshqalar). Ammo, ular inson organizmni bir keraksiz unsurdan tozalab, boshqa birini paydo bo'lishiga olib kelishi, bir deformatsiyaga uchraganini tuzatib, boshqasiga salbiy ta'sir etishi muqarrarligini ming yillik tabobat tarixi isbot qilib bergan. Tibbiyot insonni o'z-o'zini tozalash, ya'ni o'z-o'zini davolash qobiliyatiga, uning kuchlarini safarbar qilishga yoki takomillashtirishga juda katta e'tibor beradi. (Masalan, bemorlarning ovqatini yaxshilash, autotrening va boshqalar). Chunki bu muolajalar birinchi guruhdan farqli o'laroq asosan davolaydi, inson organizmini tozalaydi.

Endi o'z-o'zini tozalash mexanizmlari to'g'risida tushunchaga ega bo'lgach, asosiy maqsadga, ya'ni ijtimoiy tizimlarga o'tamiz. Xuddi biotizimlarda bo'lganidek, minglab yillardan beri davom etayotgan sivilizatsiya natijasida ijtimoiy tizimlarda ham o'z-o'zini tozalash qobiliyati paydo bo'lgan va bu qobiliyat takomillashib borgan. Ijtimoiy tizimlar takomillashib borgan sari, keraksiz unsurlardan tozalashning tashqi omillariga nisbatan o'z-o'zini tozalash qobiliyatiga katta e'tibor berib kelingan. Hozirgi zamon sivilizatsiyasining cho'qqisi bo'lgan bozor iqtisodiyotiga tayanuvchi ijtimoiy tizimlar, bizning fikrimizcha o'z-o'zini tozalovchi tizim sifatida tarkib topgan, ya'ni rivojlangan bozor iqtisodiyoti kuchli sanatsiya mexanizmlariga (baho, raqobat, kabilarga) ega.

Insoniyat tarixiga nazar solsak, ijtimoiy tizimlarni tozalashga, takomillashtirishga ko'proq tashqi omillarga katta e'tibor berishgan ("Jarrohlik"- urush, qirg'in, talash, zo'ravonlik, "dori - darmon"- soliq, qaror, majburiy tartib va hokazo). Bular albatta totalitar tizimning o'ziga xos

xususiyatlaridandir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa o'z-o'zini tozalash mexanizmlari birinchi darajani kasb etadi (jumladan, raqobat, baho mexanizmi, manfaatdorlik kabilar).

Biotizimlardagidek ijtimoiy tizimlarda ham o'z-o'zini tozalash mexanizmining samaradorligi tashqi omillarnikidan ancha yuqori ekanligini keyingi taraqqiyot ko'rsatmoqda. Misol tariqasida olsak, Janubiy Koreya bilan Shimoliy Koreya taraqqiyot darajasidagi tafovvut keyingi paytlarda 20 martani tashkil etmoqda, masalan janubliklar shimolliklarga nisbatan jon boshiga yalpi milliy mahsulot yaratish, aholi daromadlari darajasi jihatidan shuncha oldinga ketib qolishgan. Yoxud boshqa bir misol: totalitar tizimining hozirgi zamonda mashhur anklavlaridan biri Kuba bilan eng demokratik mamlakatlardan biri Amerika Qo'shma Shtatlarning Florida (asosan Mayami shahrida) shtatidagi kubaliklar koloniyasini solishtirib ko'ramiz. Kuba Respublikaning aholi 11 mln. kishini tashkil etadi, Floridadagi kubaliklar koloniyasi esa 1 mln. kishini tashkil etadi. Ammo, ular yaratadigan yalpi milliy mahsulot Kuba Respublikasining YaIMdan 3 marta ko'p. Demakki, kechagi kubalik yangi sharoitga tushib qolganidan (albatta, boshqa qator omillar ham ta'sir qilgan) jon boshiga 30-40 marta ko'proq mahsulot yaratadigan bo'lishdi. Bunda, fikrimizcha, hal qiluvchi rolni o'z-o'zini juda yaxshi tozalay oladigan, o'z-o'zidan takomillasha oladigan AQShda mavjud bo'lgan bozor iqtisodiyoti tizimi o'ynaydi.

O'zbekistonda yangi tizim: bozor iqtisodiyotini yaratish hamda totalitar tizimni esa tugatish muammosi hal qilinayotgan ayni paytda, yangi va eski tizimlarning fundamental farqlarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar biz shu muhim farqni ajrata olmasak, yangini yaratayapmiz deb, aslida eskini takomillashtirgan, hatto orqaga qaytgan bo'lishimiz mumkin. Shuni aytish joizki, O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyingi chorak asrlik taraqqiyotida, bozor iqtisodiyotini yaratayapmiz deb, aslida totalitar tizimni takomillashtirishdan nariga o'tmayotgan ayrim holatlarni ko'rish mumkin. Misol uchun, davlat apparatining, unda ishlovchilar sonining mustamlakachilik davriga nisbatan juda ham o'sib ketganligini olish mumkin. Davlat apparatini o'sishi, xalqning anchagina daromadini soliq orqali byurokrat qo'lga to'planishiga olib keladi. Buning ikki yomon tomoni bor:

a) aholi daromadining kamayishi, albatta uning ro'zg'origa salbiy ta'sir etadi,

b) byurokrat "xo'jayinlik" qiladigan davlat (aniqroq aytsak xalq) mablag'iga o'zi mehnat qilib topmaganligi uchun haqiqiy xo'jayin bo'la olmaydi, unda 4000 yildan beri yashab kelayotgan, taraqqiyotga yo'l ochib bermaydigan totalitar davlat tizimi sarqiti sifatida talon - talojlik psixologiyasi unsurlari mavjud bo'ladi. Bundan tashqari, totalitar davlat tizimida mansab - daromad manbai sanaladi. Shuning uchun mansabni egallagan byurokrat vaqtincha mansab otiga minganidan foydalanib qolishga harakat qiladi. Buning uchun esa ko'pincha mehnatkash ishining oldin ketishiga to'siq bo'lib, uning daromadiga sherik bo'ladi. Bu ham albatta taraqqiyotga juda katta salbiy ta'sir qiladi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridagi aksiyalashtirish Sovet davridagi davlat kompaniyasiga aylanib ketganligini, ya'ni direktiv (kommunistik) planlashtirish, korxonalarini majburiy aksiyalashtirishga aylanganligini ko'rgan edik. Majburlab emas, balki o'z-o'zini aksiyalash, ya'ni korxonada bozorda, raqobatda g'alaba qozonish uchun, foydasini oshirish uchun o'zi shunga etib kelganida boshqa natijalarga erishgan bo'lar edik. Jamiyat biror bir muammoni hal qilmoqchi, yoxud negativ unsurdan xolos bo'lmoqchi bo'lsa, fikrimizcha, u ijtimoiy tizim sifatida o'z-o'zini tozalash mexanizmlarini ishlatishga asosiy e'tiborni qaratmog'i kerak. Aks holda, deyarli hech qanday natijaga erishib bo'lmaydi. Yana Sovet davriga murojaat etamiz. Sovet rahbariyati iqtisodiyot samaradorligi va mahsulot sifat jihatidan sekin-asta ilg'or mamlakatlardan orqada qolayotganligini sezib, oxirgi (10,11,12) besh yilliklarni "sifat va samaradorlik besh yilliklari" deb e'lon qilib, juda katta dasturlarni ishlab chiqib, hayotga tadbiiq qilishga harakat qilgan edi. Ammo, hech qanday natijaga erisha olmadi, chunki hukumat tozalashning faqat tashqi omillariga kuch berdi (ma'muriy chora-tadbirlar ishlab chiqish, qaror qabul qilish, jazolash, davlat buyurtmasi va h.k.). Agar bu muammoni hal qilishga o'z-o'zini tozalash mexanizmiga e'tiborni qaratganlarida edi, bu masalada ancha yaxshi yutuqqa erishgan bo'lar edilar. O'sha davrda GDR, Vengriya, qisman Chexoslovakiya ayrim yutuqlarni qo'lga kiritgan edilar. Keyinchalik esa Xitoy bu masalada juda katta yutuqlarga erishib bilgan edi, chunki bu davlatlar bozorning sanatsiya

mexanizmlaridan foydalangan edi: samarali ishlagan korxonalar moddiy jihatdan yutuvchi, samarasiz ishlovchi korxonalar esa moddiy jihatdan yutqazuvchi sharoit yaratishga harakat qilishgan edi. Rivojlangan davlatlarda amal qilib kelayotgan bozor iqtisodiyoti tizimida esa bu mexanizmlar juda yaxshi ishlab kelmoqda [5.120,6].

#### **Xulosa.**

Tizim - ma'lum bir yaxlitlikni, birlikni tashkil etuvchi, bir-biri bilan aloqada bo'lib, ma'lum munosabatlar orqali bog'langan unsurlarning majmuasidir. Bu tushuncha uzoq tarixiy taraqqiyot davomida qator o'zgarishlarga uchrab, XX asrning o'rtalarida falsafiy-metodologik va maxsus-ilmiy tushunchalar ichida hal qiluvchisiga aylandi. Tizimni o'rganishda tizimlilik tamoyili, butun bilan bo'lak o'rtasidagi nisbat, tizimning atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri, har bir tizimli ob'ektning tarkiblilik xususiyati kabilarni bilish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, biz "jamiyatimizda mavjud bo'lgan korrupsiya, alkogolizm, poraxo'rlik, xo'jako'rsinlik, o'g'irlik, yulg'ichlik kabi negativ unsurlarni tugatishimiz uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish, ta'qiqlash, jazolash, qaror qabul qilish bilan natijaga erishamiz" degan illyuziyadan, xom-xayoldan xalos bo'lishimiz kerak. Toki bularni bartaraf etish uchun o'z-o'zini tozalash mexanizmi ishlatilmas ekan, hech qanday arzigulik yutuqqa erishib bo'lmaydi. Yuqoridagi har bir negativ hodisani tugatishning vaqt-soati, o'z-o'zini tozalash mexanizmi bo'lib, bu masalada shablon bo'lishi mumkin emas, kechikish ham kerak emas. O'z-o'zini tozalash mexanizmlarini yaratish juda murakkab va uzoq davom etadigan jarayon, qaysiki bu yo'nalishda qadam-baqadam, doimiy ravishda harakat qilish talab qilinadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Большая экономическая энциклопедия.-М.: Эксмо,2007.-816с.
2. Коллективизация: как это было - Правда 1988г. 26 август.
3. Рудакова М. «Японский вызов американскому капитализму уроки конкуренции» - Экономические науки, 1981г. № 2.ст. 71-80.
4. Философский энциклопедический словарь. Москва. "Советская энциклопедия". 1983 г., 840 с.
5. Хамроев Х.Р. Ижтимоий тизимнинг «ўз-ўзини тозаловчи» механизмлари тўғрисида. //Бозор ислохотлари: яқунлари ва муаммолари. Республика илмий – амалий анжумани, илмий маколалар тўплами. I қисм. Бухоро. 2000 йил. 119-122б.
6. Хамроев Х.Р. Тизим ва унинг “санация” қобилияти.Фан ва технологиялар тараққиёти, илмий – техникавий журнал.2017 йил 4-сон.160-164 бетлар.
7. <https://ru.wiktionary.org/wiki/> - Вики словарь.
8. <https://rus-big-enc-dict.slovaronline.com/58660>
9. <https://znachenieslova.ru/slovar/encyclopedia/>
10. [https://gufo.me/dict/philosophy\\_encyclopedia](https://gufo.me/dict/philosophy_encyclopedia)
11. <http://philosophy.niv.ru/doc/dictionary/philosophical/index.htm>.
12. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbek\\_tilining\\_izohli\\_lug'ati](https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbek_tilining_izohli_lug'ati)).